

## BUXORO MADRASALARDA TA'LIM-TARBIYA TIZIMI

(XIX asr oxiri XX asr boshlari)

Ahmadov Olimjon Shodmonovich

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14531775>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoroda XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida ta'limgarbiya muammolariga bag'ishlab yaratilgan manbalar va adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Manba, manbashunoslik, ta'limgarbiya, uzlucksiz ta'limgarbiya, tadqiqot, maqola, dastur, tizim, an'anaviy ta'limgarbiya, maktab, madrasa.

## EDUCATIONAL SYSTEM IN BUKHARA MADRASA (late 19th - early 20th centuries)

**Abstract.** In the following article the sources and literature related with the education-upbringing in Bukhara in the end of 19<sup>th</sup> first quarter of the 20<sup>th</sup> century is scientifically analyzed.

**Key words:** Source, source studiers, education-upbringing, chain education, study, article, program, system, nontraditional education, school, madrassa.

## СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРСКОМ МАДРАСЕ

(конец 19 века, начало 20 века)

**Аннотация.** В данной статье научно исследовано на основе источников и литературы по проблемам образования и воспитания в Бухаре в конце XIX и первой четверти XX века.

**Ключевые слова:** Источник, источниковедение, образование, воспитание, системное образования, исследование, статья, программа, система, традиционное образование, школа, медресе.

An'anaviy ta'limgarbiya tizimining yuqori bosqichi bo`lgan madrasaga boshlang'ich ta'limgarbiya maskani - maktabni o`qib tugatgan, 10 yoshdan 40 yoshgacha bo`lgan savodhon shahslar o`qishga qabul qilingan. Shariat qoidasiga muvofiq, birorta mudarrisning har qanday yoshda o`qish uchun murojaat qilgan kishiga rad javobi berishga huquqi bo`lmagan.[1] Madrasada dars jarayonlari, odatda har yili oktyabr oyida boshlanib, aprel oyigacha davom etgan. An'anaviy qoidaga ko`ra madrasada hafta kunlari 2 ga bo`lingan: tahsil kunlari va ta'til kunlari. Tahsil kunlari - shanba, yakshanba, dushanba va seshanba. Ta'til kunlari (o`tilganlarni takrorlash va dam olish) - chorshanba, payshanba va juma. Masalan, Mehtar Shofi'i ibn Xo`ja Latif va Fathulla qushbegi ibn amir Nasrulloh nomidagi madrasalarning vaqf hujjatida haftada 4 kun dars bo`lishi yozib qo`yilgan. Darsning boshlanishi quyosh chiqishi bilan belgilangan (bomdod namozidan keyin).[2]

Talabalar o`quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o`qiyotganligiga qarab jamoa-guruhlarga ajratilgan. Jamoa-guruh soni talabalar miqdori va madrasaning katta-kichikligiga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 nafardan 20 nafargacha talaba tahsil olgan.

Talabalar jamoasi-guruhni boshqargan talaba qoriboshi deb atalgan. Jamoa qorilari odatda mullazodalardan tayinlangan. Uning boshchiligidagi jamoa a'zolari qo'llarini qovushtirib, ta'zim va tavoze bilan salom berib, navbat bilan mudarris huzuriga kirib borganlar. Madrasaning birinchi qavatida joylashgan darshonaning turida domla-mudarris o'tirgan, talabalar (mullabachchalar) esa gilam yoki qig'iz (namat) tushalgan erga chordona qurib o'tirganlar.

Bu holatni 1892-1893 o`quv yilida Olimjon madrasasida tahsil olgan Sadriddin Ayniy ham quyidagicha tavsiflaydi: "Biz oltmis nafar shogird shu bolohonada maddoh ma'rakasiga to`plangan odamlardan ketma-ket shoshilishib o'tirardik. Jamoa qorisi o`rtada o'tirib, o`z kitobidan shu kungi darsga taalluqli joyni arab tilida o`qir, domulla esa, avval tarjima qilib, so`ngra sharhlab, bu darsni.. bizlarga tushuntirardi. SHogirdlarning aksariyati tushunib-tushunmay, ikki-uch kishidan bo`lib, baqirib muzokaraga tushib ketardilar. Ammo Buxorocha dars berish usuliga mohir domullamiz o`zining yo`g'on, baland ovozi, chahnab turgan ta'sirli ko`z qarashi bilan g`avg`oni bosib, har hil izoh va sharhlar bilan muallifning maqsadini qobiliyatli bolalarga tushuntirar edi. SHu bilan bir soat vaqt o'tib, bir kunlik darsimiz tugardi".[3]

Madrasalarda darslar, asosan, faol munozara tarzida o`tgan. Masalan, Ikromcha domla darsni Madrasa talabalari oldiga muhokama uchun masala qo'yishdan boshlagan. U masalaning mohiyatini tushuntirib bergen. Talabalar fikrini bir maqsadga yo`naltirib, ular obdon tortishib bo`lganidan keyin, e'tiborini o`ziga qaratgan. So`ngra ishonarli misollar, aniq dalillar bilan o`rganilayotgan matn mazmunini tojik tilida tushuntirib bergen va muallif fikriga munosabatini bildirgan.[4]

Madrasalarda o`qitiladigan ilmlar quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1. Arab tili grammatikasi: sarfi (morfologiya), naqvi (sintaksis), arabcha notshushk, arab tarihi, Qur'oni o`qish ilmi va ilmiy munozaralar madaniyati.

Ilohiyot va qonunshunoslik: Qur'on tafsiri, hadis, fiqh, diniy aqidalar, meros taqsimoti haqida ta'limot (Faroiz), qonunshunoslik asoslari.

Falsafa: mantiq, riyoziyot, jug`rofiya, astronomiya, tibbiyot, kimyo va tabiiy fanlar, falsafa.

Madrasada ta'lim jarayoni arab tilini o`rganishdan boshlangan. Eng avval umumiy kurs sifatida "Avvali ilm" o`qitilgan. ("Avvali ilm" kitobi islom dinining asoslarini o`rgatuvchi savol-javob tarzida tuzilgan fors tilidagi o`quv qo'llanmasi bo`lib, unda "Avvali ilm nimadir?" degan savolga Alloho tanish, Payg`ambarni tan olish, Shaytonni anglash degan javob berilgan). "Avvali ilm" kitobi talabalarga bir necha kunlarda yodlattirilgan. "Avvali ilm"dan so`ng arab tili grammatikasi morfologiyasi bo`yicha fors tilida yozilgan "Bidon" o`qitilgan. Ikkinci yili arab tili

morfologiyasi bo`yicha arab tilida yozilgan “Zanjoniy”, fors tilida “Muizziy” kitoblari o`qitilgan. Bu boshlang`ich maktablardagi arab tili darslarini takrorlash edi. Uchinchi yildan boshlab arab tili grammatikasi chuqur o`zlashtirila boshlangan. SHu yili “Qofiya” o`tilgan. “Qofiya” arab tilida yozilgan arab tili grammatikasidir. Unda arab tilidagi fe'l, ot va harflar haqida ma'lumot berilgan. To`rtinchi yildan ettinchi yilga qadar “SHarhd Jomiy” (Abdurahman Jomiy tomonidan Qofiyaga yozilgan sharh)dan “Qofiya”ning “Al-marfu'ot”, “Al-majrurat”, “Al-mansubot”, “Al-Mabniyyot” qismlari o`rgatilgan. Bularning bari arab tilidagi ot, fe'l, so`z, birikmalar va kelishiklarni o`qitishga bag`ishlangan. Sakkizinchchi yilda yuqoridagi kitobning “Hamd” (yuqoridagi kitoblarning boshlanishi, ya`ni Allohga hamdu sanolar aytish qismi) va “Bahsi ism” (Hamddan keyingi qismlarida Kufa va Basra olimlarining ba`zi qoidalar bo`yicha tortishgan bahslari) vdemlari o`qilgan. To`qqizinchchi yilga kelib “Qutbiy” hoshiyasidan\_(arab tilida yozilgan morfologiya) “Va rottabtuhu 'ala muqaddima” (muqaddimada tartib berdim, so`zning qaerda keltirilganligi bu fikr muqaddimasida aytilgan) o`rganilgan. Uninchchi yili - “Hamdi Aqoyid”[5] kitobida oyatlar, hadislar misolida e'tiqod masalalari o`rganilgan (Alloho tan olish, ohiratga ishonch, g`oyb olami va h.k). “Hamdi Aqoyid” - “Aqoid” kitobining hamdu sanolar qismi sanalgan. Keyingi yillarda “Aqoyid”ning “Ba'd” (keyin, asosiy maqsadga o`tishdan oldingi so`z), “Samava” (osmonlar), “Haqoyiq ul-aysha” (narsalarning haqiqati, Alloh yaratgan narsalarning hammasini hikmati va haqiqati bor) bo`limlari, bosqich, sharhlar asosida o`rganilgan. O`n to`rt, o`n beshinchchi yillarda “Tahzib” (e'tiqod haqidagi) kitobining “Hamd” (rizq berilgan uchun, bizga shu ilmni oson qilganining uchun hamdu sanolar bo`lsin) va “Ta'rifi ilm” Hilmni ta'riflash, asosan muqadimasida keltiriladi) qismmlari o`rgatilgan. O`n oltinchin va o`n ettinchi yillarda “Hikmat ul-ayn” (arab tilida yozilgan mantiq) kitobi va uning sharhlari o`rgatilgan.[6] O`n sakkizinchin va o`n to`qqizinchchi yillar yimi kalomga oid qisman ilohiyot, qisman mantivda oid “Mullo Jalol”, Hadisi sharif kitoblari o`qilib, sharh qilingan. Qur'on tafsirlarini o`zlashtirilishi bilan, Bedilhonlikni tugashi bilan madrasadagi o`quv kursi yakunlangan. Qur'on tafsiri bo`lgan Yusuf Bayzaviyning fors tilida yozilgan “Tafsiri Bayzaviy” degan asaridan ikki sura o`qilib sharh qilingan.

Madrasalarda, asosan, ilohiyot va fiqh masalalari bo`yicha bilim berilib, aniq fanlar e'tibordan chetga qoldi. Albatta, bu holat umumiylara taraqqiyotning susayishiga olib keldi va boshqa mamlakatlardan orqada qolishga sabab bo`ldi.

Xullas, bu davrda Buxoro amirligida madrasalar faoliyati asrlar davomidagi an'analar doirasida bo`lgan. Ular moddiy ta'minoti jihatidan davlatdan mustaqil bo`lib, asosan hayriya asosida yuzaga kelgan vaqf mulkchiligi daromadidan faoliyat yuritgan. Madrasalar bu davrda ham Buxoro amirligida an'anaviy ma'rifiy maskan sifatida o`z ahamiyatini saqlab qoldi. Ammo ta'lim tizimining diniy bilim doirasida cheklanib qolib, dunyoviy bilimlarga etarli e'tibor qaratilmaganligi, ona tilida bilim berilmaganligi, zamona talablaridan, rivojlangan Evropa

mamlakatlarida bu sohada erishilgan yutuqlardai chetda qolganligi sababli u chuqur islohotlarga muhtoj edi.

## REFERENCES

1. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. / Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. - Тошкент: Фан, 1966.
2. Алимова Д. История как история, история как наука. В 2-х томах. Т.Н. Феномен жадидизма. - Ташкент: Узбекистан, 2009.
3. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.
4. Elova, Dilnoza, and Olimjon Ahmadov. "Bukhara from the history of the events of the organization of the air fleet of modern new technology and the introduction of aircraft." E3S Web of Conferences. Vol. 515. EDP Sciences, 2024.
5. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚЛАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
6. Ахмедов О. Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.
7. Ahmadov O. BUXORO BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARIGA TEKNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. Ahmadov O. XIX аср охири-XX аср биринчи чорагида Бухорода таълим-тарбия тизимиning манбавий асослари ва адабиётлар таснифи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.
9. Аҳмадов О. Ш. МОЛОДЕЖЬ, ВЛАСТЬ, ОБЩЕСТВО: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ.
10. Olimjon A. БУХОРОДА ЯНГИ УСУЛ ТАЪЛИМ–ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИДАГИ ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
11. Khasanov, Ahmadov O. Sh. "МАHMUDXO 'JA BEHBUDIY-TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI YO 'LBOSHCHISI." MODELS AND METHODS FOR

## INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2.21 (2023): 143-150.

12. Olimjon A. XIX ASR OXIRI XX ASR I-CHORAGIDA BUXORODA JADID MAKTABLARINING TA'LIM-TARBIYA TIZIMI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
13. Sh, Ahmadov O. "O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI." JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING 2.8 (2023): 65-70.
14. Ahmadov, O. S., and Abduvakhab Turayev. "Pedagogical theoretical foundations from the history of the origin of physical education." International Conference on Business Management and Humanities. Vol. 1. No. 2. 2023.
15. Ahmadov, O. S., and Sherizad Islamatdinov. "Pedagogical theoretical foundations of the formation of educational motives in students." International Conference on Multidisciplinary Research. Vol. 1. No. 2. 2023.
16. Ahmadov O. S., Boboyev H. The role and significance of extracurricular educational work in the formation of spiritual and moral education //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 121-123.
17. Ahmadov O. S., Kahramanov O. Theoretical foundations of pedagogical technologies in educational processes //Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 61-63.
18. Shodmonovich, Ahmadov Olimjon. "BUXORO AMIRLIGIDA TARAQQIYPARVARLIK VA MA'RIFATCHILIK G 'OYALARINING TARQALISHI." Journal of Innovation in Education and Social Research 2.1 (2024): 265-271.
19. Shodmonovich, Ahmadov Olimjon. "O'QUVCHILARINING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH PEDAGOGIK MUAMMO VA YECHIMLARI." Journal of Innovation in Education and Social Research 2.1 (2024): 261-264.
20. ugli Bekjanov, Sherzod Yuldash, and Olimjon Shodmonovich Ahmadov. "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA QO 'LLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI." Innovative Development in Educational Activities 3.2 (2024): 207-213.
21. Shodmonovich, Ahmadov Olimjon. "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TARIXIY ILDIZLARI." SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 7.2 (2024): 67-69.

22. ugli Bekjanov S. Y., Ahmadov O. S. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA QO 'LLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI //Innovative Development in Educational Activities. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 207-213.
23. Olimjon, Ahmadov. "BUXORO MANG'IT HUKUMDORLARINING TA'LIM-TARBIYADAGI IBRATI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 40.40 (2023).
24. Ахмадов, О. "2020 ЙИЛ– БХСР ТАШКИЛ ТОПГАНИНИНГ 100 ЙИЛЛИГИ БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (БХСР) ДА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИ ЗАМОНАВИЙЛАШТИРИШ УЧУН КУРАШ." Farg'ona davlat universiteti 2 (2020): 75-78.
25. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 82-85.
26. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 39-46.
27. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 39-46.
28. Asror o'g'li A. A. et al. BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO 'RG 'ONINING ANTIK VA O 'RTA ASRLAR DAVRI TARIXI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 84-87.
29. Ismailovich T. A. Migration of Turkmen Tribes to Zarafshan Oasis: History and Analysis //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-52.
30. To'rayev A. O'ZBEKLARNING CHORJO'YDAGI HAYOT YO'LLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.
31. To'rayev A. БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
32. Тўраев А. И. БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР: Тураев Анвар Исмаилович, Кафедра “Всеобщей истории” Бухарского государственного университета старший преподаватель //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 7-13.

33. To'rayev A. English Buxorodagi turkmanlarning ananaviy turar joylari va undagi zamonaviy ozgarishlar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
34. To'rayev A. BUXORO TURKMANLARI BILAN BOG ‘LIQ JOY NOMLARI TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 14. – №. 14.
35. To'Rayev A. I., Hayotov F. U. Buxoro vohasi aholisining islom dinini qabul qilishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 499-504.
36. To'Rayev A. I. BUXORO VOHASIDA YASHAB KELGAN TURKMANLAR HAYOTIDA CHORVACHILIKNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1165-1170.
37. To'rayev A. А ЎҒУЗ ҚАБИЛА ВА УРУҒЛАРИНИНГ ТУРКМАН ХАЛҚИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ ЎРНИ: Xorijumaqola //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 6. – №. 2.